

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KARABAYEVA GULNORA BEGMUROTOVNA**

**“Co(II) VA Ni(II) IONLARINI NITROZOFENOL VA TROPEOLIN 00  
YORDAMIDA VOLTAMPEROMETRIK ANIQLASH USULLARINI  
ISHLAB CHIQISH”**

**02.00.02-Analitik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Karabayeva Gulnora Begmurotovna**

Co(II) va Ni(II) ionlarini nitrozofenol va tropeolin 00 yordamida voltamperometrik aniqlash usullarini ishlab chiqish..... 3

**Карабаева Гулнора Бегмуротовна**

Разработка вольтамперометрических методов определения ионов Co(II) и Ni(II) с использованием нитрозофенола и тропеолина 00..... 21

**Karabayeva Gulnora Begmurotovna**

Development of voltammetric methods for the determination of Co(II) and Ni(II) ions using nitrosophenol and tropaeolin 00..... 41

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KARABAYEVA GULNORA BEGMUROTOVNA**

**“Co(II) VA Ni(II) IONLARINI NITROZOFENOL VA TROPEOLIN 00  
YORDAMIDA VOLTAMPEROMETRIK ANIQLASH USULLARINI  
ISHLAB CHIQISH”**

**0.2.00.02-Analitik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PHD/K628 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ik-kimyo.nuu.uz](http://www.ik-kimyo.nuu.uz)) va “ZiyoNET” axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar**

**Abduraxmonov Ergashboy**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Ziyayev Dilshod Abdullayevich**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot**

**Toshkent kimyo texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99824) 246-02-24; E-mail: [ilmiy\\_kengash@nuu.uz](mailto:ilmiy_kengash@nuu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: +99871 227-12-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.A. Smanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, k.f.d., professor

**N.X. Qutlimurotova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

**B.N. Babayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati.** Bugungi kunda dunyoda kimyo sanoati va texnologiyasining, ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan atrof muhit obyektlari tarkibida og‘ir va zaharli, kanserogen metall ionlarining miqdori oshib bormoqda. Ayniqsa kobalt va nikel kabi metallari, ularga bo‘lgan talabning oshishi natijasida keng ishlab chiqarilmoqda va tabiiy hamda oqava suvlar tarkibida ruxsat etilgan chegaradan ko‘p miqdorda uchramoqda. Shu sababli atrof-muhit obyektlari tarkibidan ushbu metall ionlarini aniqlashning sezgir, tanlab ta’sir etuvchan, arzon elektrokimyoviy analiz usullarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda og‘ir metallarni aniqlashda optik, elektrokimyoviy, xromatografik usullarni qo‘llashda turli organik reagentlarni qo‘llab, selektiv, yuqori sezgir usullarni ishlab chiqish bo‘yicha keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa elektrokimyoviy usullarda turli xil reagentlar bilan elektrodni modifikatsiyalash orqali yuqori sezgir va selektiv usullar ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Shuning uchun kobalt va nikel ionlarini aniqlashda funksional aktiv guruhlar saqlagan organik reagentlarni qo‘llash va elektrodni modifikatsiyalash muhim ilmiy ahamiyatlidir.

Respublikamizda ham kobalt va nikel kabi strategik ahamiyatga ega metallar bilan bog‘liq tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Xususan, tabiiy obyektlar va sanoat chiqindi suvlari tarkibidan kobalt va nikel metall ionlarini selektiv ravishda aniqlash va ajratib olish, shuningdek ularni chuqur qayta ishlash usullari ustida keng qamrovli ishlar davom etmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo‘yicha «Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlashda sanoat, ilm fan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish» vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, texnogen chiqindilarni qayta ishlash, atrof-muhit obyektlari tarkibini nazorat qilishda iqtisodiy jihatdan samarali va selektiv, sezgir usullarni ishlab chiqish va metall ionlarini konsentrlash hamda ajratib olish uchun foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi PQ-5159-son «Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi qarori, 2022 yil 16 fevraldagi PQ-131-son «O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi va 2022 yil 2 martdagi PQ-144-son «Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» dagi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini

rivojlantirishning VII “Kimyo, kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo miqyosida kobalt(II) va nikel(II) ionlarini texnologik suvlar, rudalar, ishlab chiqarish korxonalarini shlaklari va changlari tarkibidan aniqlash bo‘yicha turli fizik-kimyoviy usullar keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, spektroskopik, elektrokimyoviy, termik, fotometrik hamda atom-adsorbsion metodlar samarali natijalar bergan. Ushbu yo‘nalishda bir qator xorijiy olimlar, jumladan J. Wannassi, C. Mabrouk (Tunis), M.O. Oyagi, J.O. Onyatta (Kenya), G. Selvolini, G. Marrazza (Florensiya), N. Layglon, S. Creffield (Fransiya), N.S. Ramadhan, N.G. Devi (Jakarta), M.R. Khan (Bangladesh), A. Bobrovski (Slovakiya), S. Bahrami (Kanada), I. Bulut, E. Biser (Turkiya) o‘zlarining katta ilmiy hissalarini qo‘shganlar.

MDH mamlakatlari olimlari ham mazkur sohada muhim izlanishlar olib borgan. Xususan, B.M. Djenbaev (Qirg‘iziston), A. Fokina, V. Kulakov, L. Darovskikh, K. Lyalina, N.A. Malahova, A.V. Ivoylova, N.N. va boshqa tadqiqotchilar tomonidan kompleksometriya, modifikatsiyalangan uglerod elektrodleri hamda plyonka elektrodleriga asoslangan elektrokimyoviy, termokimyoviy va fluorescent metodlar ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda esa ushbu yo‘nalishda akademik Sh.T. Tolipov, professor A.M. Gevorgyan, B.J. Kabulov, N. Turapov, E. Abdurahmonov, Z.A. Smanova, M.A. Nasimov, Z.Z. Yaxshiyeva va N.X. Qutlimurotova tomonidan optik va elektrokimyoviy usullar asosida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, hozirgi kungacha o-nitrozofenol (o-NF, 1-nitrozo-2-fenol) va tropeolin 00 (TR-00, 4-(4-anilinofenilazo) benzosulfon kislotaning natriyli tuzi) kabi organik reagentlardan foydalanib kobalt (II) va nikel(II) ionlarini siklik voltamperometriya (SV), anodli inversion voltamperometriya (AIV) hamda amperometrik usullar orqali elektrokimyoviy aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining 144/14 “Ekologik toza texnologiya yordamida terini qayta ishlash” ilmiy-tadqiqot rejasi (2022 yil) va AL-122212994 “O‘zbekiston resurslari tuzli suvdan litiy birikmalarini olish texnologiyasini ishlab chiqish” amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini nitrozofenol va tropeolin 00 yordamida voltamperometrik aniqlash usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

-o-NF va TR 00 reagentlarining elektrokimyoviy xususiyatlarini: yarim to‘lqin potensialini, redoks jarayonida ishtirok etgan elektronlar soni, diffuziya koeffitsiyenti, elektrokimyoviy reaksiyaning turini (qaytar, qaytmas, to‘liq bo‘lmagan qaytar) va fon elektrolitning ta’sirini aniqlash;

-kobalt(II) va nikel(II) ionlarining o-NF hamda TR 00 reagentlari bilan elektrokimyoviy aniqlashning optimal sharoitlarni tanlash;

-elektrod yuzasida borayotgan jarayonning mexanizmini va reaksiya turini aniqlash;

-ishlab chiqilgan kobalt(II) va nikel(II) ionlarini SV va AIV usullarda aniqlashning to'g'riligini baholash;

-ishlab chiqilgan kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlash usullarining selektivligini aniqlash va halaqit beruvchi ionlarni niqoblash;

-kobalt(II) ionlarini TR-00 bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodi (TR 00/GE) yordamida anodli inversion voltamperometriya (AIV) usulida aniqlash va uning natijalarini kumush simob amalgama elektrodidan (Ag/HgAE) olingan ma'lumotlar bilan solishtirish;

-ishlab chiqilgan usullarni texnologik va tabiiy obyektlar analiziga qo'llash hamda boshqa analitik usullar bilan raqobatbardoshligini baholash.

**Tadqiqot obyekti.** Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini o'z ichiga olgan eritmalar hamda sanoat ishlab chiqarish jarayonlaridan hosil bo'lgan texnologik chiqindi suvlari va tabiiy suvlar.

**Tadqiqot predmeti.** Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining o-NF va TR 00 reagentlari bilan kompleks hosil qilishi va ushbu jarayonning elektrokimyoviy (xususan, SV va AIV) usullari bilan o'rganilishi.

**Tadqiqot usullari.** Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining elektrokimyoviy tahlili uchun AIV va SV usullari qo'llanildi. Shuningdek, komplekslarning tuzilishini aniqlash va ularning xossalari o'rganish maqsadida infraqizil spektroskopiya (IQ) hamda kvant-kimyoviy hisob-kitob usullaridan foydalanigan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

-ilk bor o-nitrozofenolning kumush-simob amalgama elektrodi (Ag/HgAE) yuzasida siklik voltamperometrik usulda atsetat bufer (pH 5,2) muhitida yarim to'liq potentsiali  $E_{1/2} = 0,374$  V ekanligi, anod va katod diffuziya koeffitsienti  $1,83 \times 10^{-5}$  cm<sup>2</sup>/s hamda  $2,33 \times 10^{-6}$  cm<sup>2</sup>/s ga tengligi aniqlangan. Bu esa oksidlanish jarayonining tezlik bilan sodir bo'lishini isbotlagan.

-siklik voltamperometrik usulda o-nitrozofenolning kobalt(II) va nikel(II) ionlari bilan kompleks hosil qilishining yarim to'liq potentsiallari: kobalt(II) kompleksi uchun  $E_{1/2} = 0,337$  voltga, nikel(II) kompleksi uchun 0,525 voltga tengligi, Randles–Shevchik va Laviron tenglamalari asosida aniqlangan, Ag/HgA elektrod yuzasida har ikkala kompleksning redoks jarayonlarida  $n = 2$  elektron ishtirok etishi isbotlangan.

-siklik voltamperometrik usulda o-nitrozofenol bilan kobalt(II) va nikel(II) ionlarining hosil qilgan komplekslarining anod va katod diffuziya koeffitsientlarining nitrozafenolnikiga nisbatan kamayishi ( $D_{\text{anod}}$ ; Co: -46%, Ni: -87.7%,  $D_{\text{katod}}$ ; Co: +135%, Ni: -32.6% ) hamda IQ spektrlaridagi O-Me bog'larining tebranish chastotalari  $\nu = 577-578$  sm<sup>-1</sup> sohada hosil bo'lishi elektrod yuzasida kompleks hosil qilish jarayoni borganligi bilan isbotlangan;

-inversion voltamperometrik usulda Ag/HgA elektrodini qo'llab, kobalt(II) va nikel(II) kompleks birikmalarining barqarorlik konstantalari Benesi–Hildebrand uslubi bilan Co(II)–o-NF uchun  $K_f = 4,64$  va Ni(II)–o-NF uchun  $K_f = 3,51$  ga tengligi aniqlanib, barqarorlik konstantalarining kamayishi ion radiusi oshib borishiga mosligi va yetarlicha barqarorlikga egaligi, ularning voltamperometrik tahlil uchun mosligi tasdiqlangan;

-ishlab chiqilgan anodli inversion voltamperometriya usuli yordamida o-nitrozofenol ishtirokida kobalt(II) va nikel(II) ionlarini Ag/HgA elektrodi yuzasida aniqlashning to'g'riligi ikkala ion uchun ham korrelyatsiya koeffitsienti 1 ga yaqinligi, hamda yuqori sezgirlikga egaligi nikel(II) ion uchun quyi aniqlash chegarasi (LOD)  $1,43 \times 10^{-8}$  M (0,84 mkg/L) va miqdoriy aniqlash chegarasi (LOQ)  $4,33 \times 10^{-8}$  M (2,56 mkg/L), kobalt(II) ionlari uchun esa LOD  $4,19 \times 10^{-8}$  M (2,48 mkg/L) va LOQ  $1,27 \times 10^{-7}$  M (7,48 mkg/L) tengligi bilan isbotlangan;

-ishlab chiqilgan kobalt(II) va nikel(II) ionlarni aniqlashning AIV va SV natijalari atom-absorsion spektroskopiya (AAS) va ISP-AES usullaridan olingan ma'lumotlar bilan solishtirilganda Student va Fisher mezonlari asosida matematik-statistik tahlil natijalariga ko'ra hisoblangan qiymatlar kritik qiymatdan kichik ( $t_{his} < t_{krit}$ ,  $F_{his} = 1,176 < F_{krit} = 6,39$ ) bo'lganligi usulning sistematik xatolari mavjud emasligi tasdiqlangan.

-kobalt(II) ionini tropeolin 00 bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodi (TR00/GE) yordamida AIV usuli orqali aniqlashning optimal sharoitlari: ammoniy xlorid fonida (pH=8-10), -0,80 dan -1,40 V gacha, skanerlash tezligi 50 mV/s, yarim to'liqin potentsiali  $E_{1/2} = -1,25 \pm 0,01$  V ga ekanligi aniqlangan. Ishlab chiqilgan usulning quyi aniqlash chegarasi (LOD)  $5,03 \times 10^{-7}$  M (3,67 mkg/L), miqdoriy aniqlash chegarasi (LOQ) esa  $1,77 \times 10^{-6}$  M (9,54 mkg/L) ga tengligi aniqlanib, Ag/HgA elektrodida olingan quyi aniqlash chegarasiga nisbatan 35,3 marta kamligi bilan isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Ishlab chiqilgan usulning optimal sharoitlari tanlanib, kobalt(II) va nikel(II) ionlarini texnologik va tabiiy suv namunalari tarkibida sinovdan o'tkazilib, ularning yuqori analitik va metrologik xususiyatlarga ega ekanligi isbotlangan. Aydar-Arnasoy suvi analiziga qo'llanilganda kobalt uchun 0,1697 mkm, nikel uchun 0,1533 mkm gacha aniqlash chegarasigacha erishilgan.

Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlash jarayonida  $Fe^{3+}$ ,  $Fe^{2+}$ ,  $Zn^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$  va  $Pb^{2+}$  kabi kationlar ma'lum nisbatlardan oshganda xalaqit berishi kuzatildi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun bloklovchi reagentlardan:  $Cu^{2+}$  lari uchun tartarat,  $Fe^{2+}$  ionlari uchun askorbin kislotasi (0,5–2,0 mM), TGA (0,1–1,0 mM) yoki oksalat,  $Pb^{2+}$  ionlari uchun esa tiosulfat kislotasi (0,5–3 M) foydalanilganda kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlikning quyi chegarasiga qadar amalga oshirish mumkinligi ko'rsatildi. Ishlab chiqilgan anodli inversion voltamperometriya usuli Olmaliq kon metallurgiya kombinati texnogen obyektlari analiziga qo'llanilib kobalt(II) uchun 0,97 mkg/L va nikel(II) uchun 2,04 mkg/L miqdorini aniqlashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan natijalar ishonchliligi umumiy qabul qilingan standartlarga asoslangan qiyosiy tahlillar, "kiritildi–topildi" usuli, Randles–Shevchik va Laviron tenglamasi, Fisherning dispersiyalar taqqoslash qonuni, hamda Studentning t-testi kabi statistik usullari bilan qayta ishlab chiqilgan hamda elektrokimyoviy, AAS analiz usullari bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kobalt(II) va nikel(II) ionlarini o-NF hamda TR-00 reagentlari bilan siklik va anodli inversion voltamperometriya usullarida aniqlash uchun optimal sharoitlar belgilanganligi, yarim to'liqin potentsial

qiymatlari, redoks jarayonida qatnashuvchi elektronlar soni, diffuziya koeffitsienti aniqlanib, anod toki ( $I_{pa}$ ) ning potensial skanerlash tezligining kvadrat ildiziga ( $\sqrt{v}$ ) chiziqli bog'liqligi aniqlangan. Olingan natijalar asosida elektrokimyoviy reaksiyaning yarim qaytar xarakterga ega ekanligi isbotlangan. Shuningdek, begona ionlarning ta'siri samarali kamaytirilgan va usulning analitik hamda metrologik parametrlari sezilarli darajada yaxshilanganligi bilan ifodalangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan SV va AIV usullari yordamida kobalt(II) va nikel(II) ionlarini tabiiy hamda sanoat obyektlari tarkibida tez, arzon va yuqori aniqlik bilan aniqlash imkoniyati yaratildi. Taklif etilgan uslub Olmaliq kon-metallurgiya va Navoiy kon-metallurgiya korxonalarida, shuningdek, Aydar Arnasoy suv havzalarida og'ir metall ionlarining mikromiqdoriga aniqlashda amaliy ahamiyat kasb etdi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Co(II) va Ni(II) ionlarini nitrozofenol va tropeolin 00 yordamida voltamperometrik aniqlash usullarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining o-nitrozofenol yordamida anodli inversion voltamperometrik aniqlash usuli "Olmaliq kon metallurgiya kombinati" AJ Rux zavodi laboratoriyasida amaliyotiga joriy etilgan. ("Olmaliq kon metallurgiya kombinati" AJ ning 2025 yil 24-sentabr SL-823-son ma'lumotnomasi asosida). Natijada kobalt(II) va nikel(II) ionlarini texnologik suvlar tarkibidan mikromiqdorgacha miqdori aniqlangan.

Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini o-nitrozofenol va tropaeolin 00 reagentlari yordamida aniqlashning voltamperometrik usullari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasida sinovdan o'tkazilgan va amaliyotga joriy etilgan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ ning 2025 yil 10-oktabr №02-07/02/10523 sonli ma'lumotnomasi). Natijada texnologik suvlar tarkibida kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashning tanlab ta'sir etuvchanligi, tezkorligi va soddaligi, past konsentratsiyalarda ham korrelyatsiya koeffitsiyenti 1 ga yaqin bo'lgan ishonchli natijalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarida 6 ta, jumladan, 3 ta respublika, 2 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan, hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan "Foydali model" uchun (FAP 01771) patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida ishning dolzarbligi ko'rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan, tadqiqotning obyekt va predmetlari belgilangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish ro'yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini fizik-kimyoviy aniqlash usullari hamda ularning biologik va ishlab chiqarishdagi ahamiyati (Ababiyotlar sharhi)**" deb nomlangan birinchi bobida kobalt va nikelning texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishdagi ahamiyati, kobalt va nikel ionlarini aniqlashning fizik-kimyoviy usullari bo'yicha mavjud ma'lumotlarning tahlili keltirilgan.

Turli ob'yektlarda organik reagentlar yordamida kobalt va nikel ionlarini aniqlash natijalari tahlil qilinib, mavjud adabiyotlar asosida tizimlashtirildi. Qayd etildiki DMG, 2-(5-metilpiridilazo)-2'-gidroksi-5'-metoksibenzol, 2,4-dinitroazonaftol-disulfokislota tuzi, 2-nitrozo-1-naftol kabi azofunksional va nitrozobirikmalar kobalt(II) va nikel(II) ionlari bilan barqaror kompleks hosil qilib, ularni aniqlashda yuqori sezuvchanlik va selektivlikka ega bo'lgan reagentlar sifatida keng qo'llanilgan.

Dissertatsiyaning "**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini voltamperometrik aniqlashda foydalanilgan asbob-uskunalar va tadqiqot usullari**" nomli ikkinchi bobida, kerakli asbob-uskunalar, elektrokimyoviy aniqlash usullari, jihozlar, kobalt(II) va nikel(II) ionlarining hamda organik reagentlarning standart va ishchi eritmalarini tayyorlash, metall ionlarini aniqlash va olingan natijalarning aniqligini topishda qo'llanilgan usullar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini o-nitrozofenol va tropeolin 00 yordamida inversion va siklik voltamperometriya usullari bilan aniqlashning optimal sharoitlarni tanlash va ularning tahlili**" nomli uchinchi bobida reagentlarning kvant kimyoviy hisoblash natijalari bilan birgalikda kobalt(II) va nikel(II) ionlari bilan aniqlashning optimal sharoitlari tanlangan hamda reaksiya mexanizmi AIV va SV hamda IQ usullari orqali isbotlangan. Tropeolin 00 bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodi yordamida kobalt(II) ionlarini aniqlashning AIV usullari bayon etilgan. Kobalt (II) va nikel (II) ionlari konsentratsiyasining analitik signalga ta'siri begona ionlarning analitik signal intensivligiga ta'siri hamda ishlab chiqilgan usulni sun'iy aralashma tarkibiga qo'llash natijalari keltirilgan.


Quyida uchinchi va to'rtinchi boblar doirasida olingan asosiy natijalar hamda keltirilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan.

**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining o-nitrozofenol bilan hosil qilgan komplekslarining siklik voltamperogrammalari orqali fon elektrolit hajmi va pH qiymatining ta'siri o'rganilgan:** o-NF molekulasiining elektrokimyoviy xatti-harakatlarini baholash maqsadida turli fon elektrolit sharoitlarida (NaOAc pH ~5.2; HCl pH ~1.2; H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> pH ~2; NH<sub>4</sub>Cl pH ~9; (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> pH ~6; H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> + KNO<sub>3</sub> pH ~7.2; har biridan 2–5 ml hajmda) metall ionlari (Ni<sup>2+</sup> yoki Co<sup>2+</sup>) ishtirokisiz anodli

inversion voltamperogrammlar yozib olindi. Natijalar eng kuchli analitik signal neytralga yaqin pH da, xususan atsetat buferida qayd etilgan.

o-NF hamda uning kobalt(II) va nikel(II) komplekslarining voltamperogrammlari 0.1 M atsetat buferida (pH 5.0–6.5) yozib olindi, pH 5.2 da maksimal anod toki qayd etildi. pH 6.0–6.5 da esa signal sezilarli pasayishi, kobalt va nikel ionlarining gidroksokomplekslarga o'tishi bilan izohlandi. Fon eritmasi hajmi bo'yicha o'tkazilgan tajribalar 2.0 ml 0.10 M atsetat buferida anod va katod toklarining optimal qiymatlari kuzatilgan.

**o-Nitrozofenolning redoks faoliyati va elektrokimyoviy xatti-harakatlarini siklik voltamperometriya usulida o'rganilgan:** SV kompleks hosil qiluvchi tizimlarning elektrokimyoviy xatti-harakatlarini, redoks faoliyatini, reaksiyaning reversibiligi va massa tashish xususiyatlarini, shuningdek  $E_{1/2}$ ,  $n$  va  $D$  kabi muhim parametrlarni tahlil qilishda samarali metod hisoblanadi<sup>1</sup>. Shu maqsadda 0.1 N HCl va pH 5.2 bo'lgan atsetat bufer fon eritmaları o'rganildi. Natijada, HCl muhitida o-NF ning elektrokimyoviy jarayoni susayib, faqat past qaytarilish cho'qqisi kuzatildi, atsetat buferida esa aniq qaytarilish va oksidlanish cho'qqilari qayd etildi, Ushbu muhit o-NF uchun optimal sharoit ekanini ko'rsatdi.



**1-rasm.** a) o-NF ning siklik voltammogrammasi, b)  $I_{pa}$  ning  $\sqrt{v}$  ga bog'liqlik grafigi

o-NF ning diffuziya koeffitsientini ( $D$ ) aniqlash uchun 25 ml hajmli eritma tayyorlandi (2,0 mkm o-NF, 2,0 ml 0,1 M atsetat buferi pH 5,2). Voltamperogrammlar 40–500 mV potensial oralig'i, 10 s to'planish vaqti va 5–11 mV/s skanerlash tezligida silliq, takrorlanuvchan va chiziqli xarakterga ega bo'ldi (1-rasm a, b, va 1-jadval).

1-rasm siklik voltamperogrammlari asosida Ag/HgA elektroddagi o-NF ning yarim to'lqin potentsiali  $E_{1/2}=0,374$  V tengligi aniqlandi.  $E_{1/2}$  qiymati anod va katod tok signali potentsiallarining o'rtacha qiymati sifatida quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$E_{1/2} = \frac{E_{pa} + E_{pc}}{2} \quad (1)$$

Bunda;  $E_{pa}$  – anod pik potentsiali;  
 $E_{pc}$  – katod pik potentsiali.

<sup>1</sup> Muallif dissertatsiya ishini bajarish jarayonida bergan ilmiy maslahatlari uchun kimyo fanlari doktori, professor N. H. Qutlimurotovaga o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

o-Nitrozafenolning 5-11 mV/s potensial skanerlash tezligidagi voltamperogramma qiymatlari

Skann tezligi (V/s)	E <sub>pa</sub> (V)	E <sub>pc</sub> (V)	ΔE <sub>p</sub> (V)	E <sub>1/2</sub> (V)	I <sub>pa</sub> (mkA)	I <sub>pc</sub> (mkA)
0.005	0.422	0.320	0.102	0.371	138.0	-37.0
0.006	0.414	0.294	0.120	0.354	141.0	-67.0
0.008	0.416	0.294	0.122	0.355	153.0	-65.0
0.009	0.428	0.304	0.124	0.366	167.0	-50.0
0.011	0.434	0.314	0.120	0.374	192.0	-55.0

**o-NF molekulasiining diffuziya koeffitsiyentini aniqlash maqsadida Randles–Shevchik tenglamasidan foydalanildi (2-tenglama).**



$$I_p = (2.69 \times 10^5) n^{3/2} A C D^{1/2} \nu^{1/2} \quad (2)$$

Diffuziya koeffitsientlari (berilgan optimal sharoitlar: T = 293.15 K, A = 0.277 cm<sup>2</sup>, n = 2, C<sub>o-NF</sub> = 2.0 mkm, ν = 0,011 mV/s) hisoblanib, D<sub>a</sub> = 1,83 × 10<sup>-5</sup> cm<sup>2</sup>/s D<sub>k</sub> = 2,33 × 10<sup>-6</sup> cm<sup>2</sup>/s dan sezilarli yuqori ekanligi redoks jarayonining diffuziya bilan boshqariladigan va qaytar xarakterga ega ekanligi hamda ishchi elektroddagi oksidlanish jarayoni qaytarilish jarayoniga nisbatan tezroq sodir bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshadi:

**1. Anod jarayoni (oksidlanish):**




**2. Katod jarayoni (qaytarilish):**



**o-NF ning metall ionlari bilan kompleks hosil bo‘lishi:**

o-NF ning metall ionlari ishtirokida hosil bo‘ladigan [Ni(o-NF)<sub>2</sub>] va [Co(o-NF)<sub>2</sub>] komplekslarining E<sub>pa</sub>, E<sub>pc</sub>, E<sub>1/2</sub> hamda I<sub>pa</sub>, I<sub>pc</sub> kabi redoks xususiyatlari SV usulida aniqlandi (2-rasm a va b, 2-jadval).

2-jadval asosida yarim to‘lqin potentsiali o-NF uchun E<sub>1/2</sub>=0.374 V bo‘lsa, [Ni(o-NF)<sub>2</sub>] kompleksida esa E<sub>1/2</sub>=0.527 V gacha siljigan. Bu redoks jarayon uchun yuqoriroq energiya kerakligini va kompleks hosil bo‘lganligini ko‘rsatadi. Aksincha, [Co(o-NF)<sub>2</sub>] kompleksida E<sub>1/2</sub>=0.337 V gacha pasaygan bo‘lib, bu holat kobalt kompleksining nisbatan beqarorligi va oson redoks almashinuvi mavjudligini bildiradi.





**2-rasm.** SV usuli asosida olingan [Ni(L)<sub>2</sub>] va [Co(L)<sub>2</sub>] komplekslarining redoks faolligini ko‘rsatuvchi voltamperogrammalar

o-Nitrozofenol va  $[\text{Ni}(\text{o-NF})_2]$ ,  $[\text{Co}(\text{o-NF})_2]$  komplekslari uchun voltamperometrik redoks parametrlari

№	Parametr	Ligand (o-NF)	Kompleks $[\text{Ni}(\text{o-NF})_2]$	Kompleks $[\text{Co}(\text{o-NF})_2]$
1	$E_p$ (V)	0.434	0.730	0.384
2	$E_{pc}$ (V)	0.314	0.324	0.290
3	$E_{1/2}$ (V)	0.374	0.527	0.337
4	$I_{pa}$ (mkA)	192.0	99.9	95.00
5	$I_{pc}$ (mkA)	-55.00	-22.40	-43.00

Koordinatsiyalashgan o-nitrozofenolning gidroksilaminga qaytarilishi.


### Katod reaksiyasi:



Voltammogrammalarda kuzatilgan redoks o'zgarishlar faqat o-NF va uning koordinatsiyalashgan shakli bilan bog'liq bo'lib, yarim to'lqin potensialining qiymati kobalt va nikelning oksidlanishiga aloqador emasligini tasdiqlaydi.

**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining o-nitrozofenol bilan kompleks hosil qilishiga skanerlash tezligining ta'siri o'rganildi:** Elektrokimyoviy o'lchovlarda potensialning vaqtga nisbatan o'zgarish tezligi — skanerlash tezligi (v, mV/s) — voltamperogramma shakliga, cho'qqi tokining ( $I_p$ ) kattaligiga, cho'qqining joylashuvi ( $E_p$ ) hamda uning simmetrikligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Co(II)-o-NF kompleksi uchun 5–11 mV/s oralig'ida anod toki ( $I_{pa}$ ) chiziqli oshdi, 11 mV/s dan yuqorida esa pasayish yoki o'sish sekinlashdi. Ni(II)-o-NF kompleksi uchun 30–45 mV/s gacha anod va katod toklarining ortishi diffuziya va adsorbsiyaning samaradorligini ko'rsatdi, 50–55 mV/s da esa tok signali kamaydi (3-rasm a, b). Shuningdek ushbu skanerlash tezligidagi diffuziya koeffitsiyentlari aniqlandi (3-jadval).



**3-rasm. a) Kobalt(II) – o-NF b) Nikel(II) – o-NF kompleksining siklik voltamperogrammalariga potensial skanerlash tezligining ta'siri.**

### 3-jadval

Co(II)–o-NF va Ni(II)–o-NF komplekslarining anodli va katodli diffuziya koeffitsiyentlari ( $T = 293.15 \text{ K}$ ,  $A = 0.277 \text{ cm}^2$ ,  $n = 2$ ,  $C = 0.040 \text{ mkm}$ )

Kompleks	D_anod o'rtacha ( $\text{cm}^2/\text{s}$ )	D_katod o'rtacha ( $\text{cm}^2/\text{s}$ )
o-NF	$1,83 \times 10^{-5}$	$2,33 \times 10^{-6}$
Co(II)–o-NF	$9.79 \times 10^{-6}$	$5.48 \times 10^{-6}$
Ni(II)–o-NF	$2.25 \times 10^{-6}$	$1.57 \times 10^{-6}$

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki ligandga nisbatan komplekslarning diffuziya qiymati kichik bo'lishi kompleks hosil bo'lish jarayonida zarracha hajmining ortishi va molekularning eritmadagi harakatchanligining kamayishi bilan izohlanadi.

Kobalt(II) va nikel(II) ionlarining o-nitrozofenol bilan kompleks hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi elektronlar sonini SV usulida aniqlandi: Randles–Shevchik va Laviron tenglamalari orqali Ni(II)–o-NF va Co(II)–o-NF komplekslarida elektrod yuzasida metall markazida ikki elektronli redoks jarayoni sodir bo'lishini ko'rsatdi.

**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashda o-nitrozofenol reagenti bilan anodli inversion voltamperometrik usulda o'rganildi:** Asetat-bufer (AcB) muhiti yakka holda voltamperogrammada deyarli sezilarli tok signali bermagan bo'lsa, o-NF mavjudligida esa yarim to'lqin potentsiali  $E_{1/2} \approx 0.386 \text{ V}$  bo'lgan aniq signal kuzatildi. Ushbu tok signali o-NF molekularining elektrod sirtida adsorbsiyalanib, keyinchalik anodli oksidlanishga uchrash qobiliyatiga egaligini ko'rsatadi.


Signalning maksimal toki  $I_p = 192.5 \text{ mA}$  bo'lib, bu o-NF molekularining elektrod sirtida oksidlanishga uchrashini tasdiqlaydi. Tajriba ma'lumotlari asosida yarim to'lqin potentsiali ( $E_{1/2}$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{1/2} = I_0 + \frac{I_p - I_0}{2} = 0 + \frac{192.5 - 0 \text{ mA}}{2} = 99.5 \text{ mA}, (8)$$

Shundan kelib chiqib, yarim to'lqin potentsiali quyidagiga teng bo'ldi:

$$E_{1/2} \approx 0.386 \text{ V} (9)$$

Kuzatilgan anod cho'qqi o-NF ning redoks faol fenol guruhi orqali oksidlanayotganini bildiradi (10-tenglama).




**4-rasm.** 0.1 M atsetat bufer (pH 5.2) va o-NF (2 mkm)ning anodli inversion voltamperogrammasi;  $t_{acc} = 90 \text{ s}$ ,  $E_{acc} = 50 \text{ mV}$ ,  $v = 20 \text{ mV/s}$

**Modifikatsiyalangan Ag/HgAE elektrod yuzasida kobalt(II) va nikel(II) ionlarining anodli inversion voltamperometrik o'zgarishlari o'rganildi:** Nikel(II) ionlari uchun anod toki  $I_p \approx 119 \text{ mA}$ , yarim to'lqin potentsiali esa  $E_{p1/2} \approx +0.175 \text{ V}$  da kuzatildi. Kobalt(II) ionlari uchun esa anod toki  $I_p \approx 198 \text{ mA}$ , yarim



to'liqin potentsiali  $E_{p1/2} \approx +0.100$  V ni tashkil etdi. O'lchovlar  $-300$  mV dan  $+600$  mV gacha bo'lgan potentsial diapazonida, to'planish potentsiali  $-1350$  mV, to'planish vaqti  $60$  s da amalga oshirildi. Skanerlash tezligi nikel(II) ionlari uchun  $20$  mV/s, kobalt(II) ionlari uchun esa  $15$  mV/s deb belgilandi (5-rasm a va b).

Bu jarayon quyidagi redoks tenglama asosida amalga oshadi:

**1-bosqich. Katodli jarayon – Konsentratsiyalash (oldindan to'plash):**



**2-bosqich. Anodli jarayon– Oksidlanish (inversiya):**




**5-rasm. a)** Nikel(II) va **b)** kobalt(II) ionlarining  $0.1$  M asetat bufer muhitidagi inversion voltamperogrammalari

**Modifikatsiyalangan Ag/HgA elektrod yuzasida kobalt(II) va nikel(II) ionlarining o-nitrozofenol bilan kompleks hosil qilishining anodli inversion voltamperometrik o'zgarishlari o'rganildi:** Bufer muhitida o-NF va Ni(II)/Co(II) ionlari aralashmalari voltamperogrammalarida yangi anod cho'qqilari yoki mavjud cho'qqilarning sezilarli siljishi kuzatildi (6-rasm a, b). Cho'qqi potentsialining ( $E_p$ ) anod tomonga siljishi va tok intensivligining ( $I_p$ ) ortishi redoks faol kompleks shakllanishini ko'rsatdi. Bu esa elektrod sirtida ion va ligand o'rtasida koordinatsion bog'lanish yuzaga kelganligini, ya'ni komplekslanish sodir bo'lganligini isbotlaydi.

Har ikkala metall uchun  $E_{acc}=50$  mV, Ni(II)–o-NF uchun  $t_{acc}=90$  s,  $v=30$  mV/s, Co(II)–o-NF uchun  $t_{acc}=80$  s,  $v=15$  mV/s bo'lgan.

Bu holat quyidagi koordinatsion tenglama bilan ifodalanadi:



**6-rasm. a)** Ni(II)–o-NF va **b)** Co(II)–o-NF komplekslarining anodli inversion voltamperogrammalari.


Quyida har to'rtta holat: fon elektrolit, ligand, ionlarning alohida ligandsiz holati, hamda ligand ishtirokidagi kompleks holatlari bo'yicha taqqoslovchi voltamperometrik parametrlari 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval

o-Nitrozofenol, kobalt(II), nikel(II) ionlari va ularning kompleksining voltamperometrik xossalari

13	Eritma tarkibi	Ip (mkA)	E <sub>1/2</sub> (V)	t <sub>acc</sub> (s)	E <sub>acc</sub> (mV)	V (mV/s)	Ediap (mV)
1	0.1 M atsetat bufer	40–50	—	90	50	25	-1000 ÷ +1000
2	o-Nitrozofenol	195	≈+0.386	90	50	25	-1000 ÷ +1000
3	Ni(II) ionlari	119	≈+0.175	60	-1350	20	-300 ÷ +600
4	Co(II) ionlari	198	≈+0.100	60	-1350	15	-300 ÷ +600
5	o-NF+Ni(II)komp.	1440	≈+0.502	90	50	30	-500 ÷ +1200
6	o-NF+Co(II) komp.	2447	≈+0.310	80	50	15	-100 ÷ +600

**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini o-nitrozofenol yordamida anodli inversion voltamperometrik aniqlashda to'planish potensialining ta'siri o'rganildi.**





**7-rasm. a) Ni(II)–o-NF va b) Co(II)–o-NF komplekslarining anodli inversion voltamperogrammasiga to'planish potensialining ta'siri**

Ni(II)–o-NF va Co(II)–o-NF komplekslari uchun 20 mV dan 80 mV gacha bo'lgan cho'kish potentsiali sharoitida voltamperometrik o'zgarishlar o'rganildi (7-rasm a, b).

Ni(II)–o-NF va Co(II)–o-NF komplekslari uchun E<sub>acc</sub>= 50 mV da eng barqaror va aniq voltamperometrik cho'qqilar kuzatildi. Bu sharoitda kompleks elektrod sirtiga yetarli darajada adsorbsiyalangan va redoks jarayon to'liq amalga oshgan.

**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini o-nitrozofenol yordamida anodli inversion voltamperometrik aniqlashda to'planish vaqtining ta'siri o'rganildi:** Ni(II)–o-NF uchun optimal t<sub>acc</sub>=90 s, Co(II)–o-NF uchun esa t<sub>acc</sub>=80 s deb belgilandi — bu holatda maksimal signal intensivligi va aniq cho'qqi shakli kuzatildi (8-rasm a, b, 5-jadval).



**8-rasm.** To‘planish vaqti ( $t_{acc}$ )ning AIV signaliga ta‘siri:  
**a) Ni(II)–o-NF kompleksi b) Co(II)–o-NF kompleksi.**



**5-jadval**

Ni(II)–o-NF va Co(II)–o-NF komplekslarining optimal sharoitlardagi anodli inversion voltamperometrik ko‘rsatkichlari

№	Parametr	Ni(II)–o-NF	Co(II)–o-NF
1	To‘planish potentsiali ( $E_{acc}$ ), mV	+50	+50
2	To‘planish vaqti ( $t_{acc}$ ), s	90	80
3	Skan tezligi ( $v$ ), mV/s	25	25
4	Potensial diapazoni, mV	-500 ÷ +1200	-100 ÷ +600
5	Yarim to‘lqin potentsiali ( $E_{1/2}$ ), V	+0.500	+0.300
6	Maksimal anod toki ( $I_p$ ), mkA	2878	2447
7	Signal shakli	Sigmoidal, simmetrik	Sigmoidal, simmetrik

**Ishlab chiqilgan kobalt(II) va nikel(II) ionlarini aniqlashning anodli inversion usulining aniqligi baholandi:** Nikel(II) va kobalt(II) uchun 0.010–0.150 mkm oralig‘idagi konsentratsiyasi o‘zgarishi sharoitida voltamperogrammalar olindi (9-rasm a,b).

9-rasmda nikel(II) va kobalt(II) ionlarining 0,01–0,130 mkm konsentratsiya oralig‘ida analitik signal bilan bog‘liqligida korrelyatsiya koeffitsienti mos ravishda  $R^2 = 0,9891$ ,  $R^2 = 0,9928$  ga teng bo‘lib, nikel(II) uchun quyi aniqlash chegarasi (LOD)  $1,43 \times 10^{-8}$  M, miqdoriy aniqlash chegarasi (LOQ) esa  $4,33 \times 10^{-8}$  M va kobalt(II) uchun LOD qiymati  $4,19 \times 10^{-8}$  M, LOQ qiymati esa  $1,27 \times 10^{-7}$  M etib topildi.



**9 -rasm. a) Nikel(II) va b) Kobalt(II) ioni konsentratsiyasining inversion voltamperogrammadagi signal intensivligiga ta‘siri**


**Kobalt(II) va nikel(II) ionlarini anodli inversion voltamperometrik aniqlashga begona ionlarning ta‘siri o‘rganildi:** Umumiy hajmi 25 ml bo‘lgan

eritmaga 2 ml 0,1 M atsetat bufer eritmasi ( $\text{pH} = 5,2$ ), 2,0 mkm o-NF eritmasi, aniqlanayotgan metall ionlari (nikel(II) yoki kobalt(II)) va ma'lum nisbatdagi begona metall ionlar qo'shildi. Metall ionlarining 7.0 mkm signali uchun xatolik  $\geq 5\%$  da hisoblandi.  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{V}^{3+}$  va  $\text{Cd}^{2+}$  kabi ionlarning 1:70 nisbatgacha halaqit bermasligi biroq  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$  kabi ionlarning ma'lum nisbatlardan keyin xalqit kuzatilganligi uchun bloklovchi reagentlardan (EDTA (0.1–0.5 mM), askorbin kislotasi (0.5–2.0 mM), TGA (0.1–1.0) mM, oksalat, tiosulfat kislotasi (0.5–3.0 mM)) foydalanish orqali aniqlikning quyi chegarasigacha erishildi.

